



Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida Yoshlar oyligi doirasida "YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI, BIRLASHAYLIK!" shiori ostida Yoshlar festivali bo'lib o'tdi.

Festivalda milliy qadriyatlarimizni targ'ib qiluvchi ko'rgazmalar, turli ko'rik-tanlovlar, intellektual bellashuvlar, sport musobaqalari tashkil etildi. Ularda yoshlar mahorati,

ularning turli sohalarida erishgan muvaffaqiyat va yutuqlari o'z ifodasini topdi.

Shu kuni faol yoshlar mutasaddilar tomonidan munosib taqdirlandi.

O'za

ACHCHIQTOSH

Yoshlardan ayb izlamang!

Bugungi kunda poytaxtimizning har bir tumanida Toshkent shahri bandlik boshqarmasi tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi mavjud. Bunday markazlar viloyatlarda ham bor. "Aholi bandligiga ko'maklashish markaz"larining har oyda mavjud bo'sh ish o'rinlari uchun e'lon qilib boradigan alohida daftari bor. Bu daftarlarni ko'zdan kechirib, aholi ish bilan ta'minlanarkanda, degan xulosaga borganim.

O'zini Hanifa deb tanishtirgan 30 yoshlardagi qizdan shunday markazlarga qatnab, nega ishga joylasholmaganini so'radim.

"Markazga kelamiz. Bo'sh ish o'rinlari e'lon qilingan daftarni varaqlab o'zingga mos ish izladim. Topgach, shu yerdagi xodimlarga yuzlandim. Ular yo'llanma berishdi. Ammo borgan joyimdagi tashkilotdagi o'zlarining talab va tartiblarini tushuntirishdi. Kompyuter sohasida men bilmagan dasturlar ko'p, shuning uchun ishga olishni rad etishdi. Yana shunday tashkilotlar

borki, maoshi bir millionga ham yetmaydi. Maoshni bir oyga taxminan bo'lib chiqqanimda yarmi yo'kirkiraga, yarmi tushlikka arang yetarkan xolos. Men ishlashni xohlayman. Biroq ko'ngildagidek maoshli ish yo'q!" — deydi Hanifa.

Bunday yoshlarni ko'plab uchratish mumkin. Darhaqiqat, yoshlar ishlashga astoydil bel bog'lab markazlarga boryapti. Ammo u yerda taklif etilayotgan maoshni ko'rib, hafsalasi pir bo'layotgani ko'pchilikka sir emas.

Davomi 4-sahifada.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI TOSHKENT XALQARO KINOFESTIVALINI QAYTA TIKLASH VA O'TKAZISH TO'G'RISIDA

Milliy kino san'atining asriy an'alarini saqlash va rivojlantirish, ushbu san'at turi orqali mamlakatlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlash, xalqaro miqyosda ijodiy hamkorlik ko'lamin va madaniy aloqalarni kengaytirish hamda ko'p yillar davomida o'tkazilib kelingan jahonga mashhur Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yana-

da takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6202-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. 1968-1997-yillar davomida O'zbekistonda o'tkazilib kelingan "Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining Toshkent xalqaro kinofestivali" "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali nomi bilan qayta tiklansin hamda 2021-yildan boshlab har yili sentyabr-oktabr oylarida Toshkent shahrida o'tkazilsin.

Davomi 2-sahifada.

SAYLOV - 2021

SAYLOV QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK MUQARRAR

Saylov kampaniyasi davrida saylov qonunchiligi aniq va bir xilda bajarilishi, barcha jarayonlarda qonun ustuvorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan qabul qilinayotgan har bir qarorda saylov kampaniyasining qonuniyligini ta'minlash ustuvor vazifa qilib belgilangan.



Davomi 9-sahifada.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

TOSHKENT XALQARO KINOFESTIVALINI QAYTA TIKLASH VA O'TKAZISH TO'G'RSIDA

Davomiy. Boshlanishi 1-sahifada.

2. "Ipak yo'li durdonasi"
Toshkent xalqaro kinofestivalini o'tkazishning asosiy maqsadlari etib quyidagilar belgilansin:

kino san'ati orqali dunyo mamlakatlari o'rtasida madaniyatlararo muloqotni yanada mustahkamlash va rivojlantirish, jahon kinoindustriyasi vakillari bilan hamkorlikda qo'shma kino loyihalari yaratishni kengaytirish; insonparvarlik va bag'rikenglik, xalqlar do'stligini targ'ib qiluvchi, zamonaviy dunyoning madaniy xilma-xilligini aks ettiruvchi, turli mamlakatlarning eng sara kino san'ati asarlarini yurtimizga jalb qilish;

milliy kino san'atini yanada rivojlantirish va xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini oshirish, ushbu san'at turi orqali xalqimizning boy tarixi va betakror madaniyatini dunyoga keng targ'ib etish;

xorijlik kino san'ati vakillari bilan hamkorlikda ushbu sohada ilmiy-tadqiqot va izlanishlarni amalga oshirish, o'zaro tajriba almashish, taniqli kino namoyandalari ishtirokida konferensiya, davra suhbatlari, taqdimot va mahorat darslarini tashkil etish.

3. "Ipak yo'li durdonasi" XIII Toshkent xalqaro kinofestivali (keyingi o'rinlarda – Kinofestival) 2021-yilning 28-sentabr – 3-oktabr kunlari "Tinchlik, taraqqiyot va marifati" shiori ostida o'tkazilsin.

Kinofestival "Festival" shaklida, nufuzli xalqaro kinofestivalning g'olib va nominantlari ishtirokida dunyoning eng yaxshi kino san'ati asarlarini jalb qilgan holda tashkil etilsin va uning doirasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilsin:

Kinofestival arafasida chet davlatlarda O'zbek kino san'ati kunlari hamda O'zbekistonda xorijiy mamlakatlarning kino san'ati kunlarini tashkil etish, ushbu tadbirlarni Toshkent shahri va respublika hududlari bo'ylab o'tkazish;

Osiyo qit'asi va qadimiy Ipak yo'li bo'ylab joylashgan mamlakatlarda yosh kinorejissorlarning qisqa metrajli filmlari festivalini o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash, uning doirasida konferensiya, davra suhbatlari, dunyoga mashhur kinorejissorlar ishtirokida mahorat saboqlari va treninglar, ijodiy uchrashuvlar tashkil qilish;

xorijlik mehmonlar va ishtirokchilar uchun eng sara milliy filmlarimiz namoyishlari, O'zbekiston kino san'ati tarixi va madaniy merosiga bag'ishlangan media tadbirlarni tashkil qilish;

xorijlik hamkorlar va ekspertlar ishtirokida "O'zbekfilm" kinokonserni ning kino ishlab chiqarish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi markaz sifatidagi zamonaviy moddiy-texnika

bazasi, texnologik imkoniyatlari va kelgusi istiqbollari bag'ishlangan taqdimotlar o'tkazish;

xorijlik va mahalliy kinokompaniyalar, kinostudiyalar va telekompaniyalar ishtirokida kinobozor tashkil qilish, ularning filmlar, seriallar va boshqa audiovizual mahsulotlarni o'zaro almashishi, xarid qilishi va sotishiga ko'maklashish;

dunyoda kino industriyasi sohasida yaratilgan eng so'ngi innovatsion loyihalar va yirik striming platformalari vakillari ishtirokida milliy striming platformasi taqdimotlarini o'tkazish; mamlakatimiz kinolokatsiyalarini namoyish etish, O'zbekistonning kino va turizm sohasidagi salohiyatini targ'ib qilish hamda bu boradagi keng imkoniyatlardan samarali foydalanishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish.

4. Quyidagilar:

"Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivaliga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita (keyingi o'rinlarda – Tashkiliy qo'mita) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

"Ipak yo'li durdonasi" XIII Toshkent xalqaro kinofestivaliga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha "yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali to'g'risidagi nizomni tasdiqlansin.

5. Tashkiliy qo'mitaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

rejalashtirilgan tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha mas'ul vazirlik, idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda badiiy-ijodiy guruhlar va xalqaro ekspertlar kengashlarini tuzish;

xalqaro kinofestivalini o'tkazish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan xorijiy tashkilotlarni Kinofestivalga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga shartnoma asosida jalb etishni tashkil qilish;

Kinofestivalning logotipi, esdalik sovg'alari, diplom va statuetka namunalarini, uning dasturi, tantanali ochilish va yopilish marosimlari ssenariysi va badiiy dasturlari, xarajatlar smetasi, ishtirokchilari va mehmonlari ro'yxatini tasdiqlash;

Kinofestival va uning doirasidagi tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazishga qaratilgan boshqa kompleks tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish.

6. Kinematografiya agentligi, Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi, O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi va Toshkent shahar hokimligining Alisher Navoiy nomidagi kino saroyi binosini Milliy kinematografiyani rivojlantirish

markazi boshqaruviga berish va uning negizida "Kinochilar uyi"ni tashkil qilish haqidagi taklifi ma'qullansin.

7. Belgilansinki:

a) Kinofestivalga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha: Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi faoliyatiga Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan va doimiy asosda ishlaydigan 9 nafar mutaxassis jalb etiladi;

mazkur mutaxassislar mehnatga haq to'lash shartlari bo'yicha Madaniyat vazirligi huzuridagi Xalqaro festivallar direksiyasi xodimlariga tenglashtiriladi;

b) Kinofestivalga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlari:

2021-yilda – Tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlangan xarajatlari smetasiga asosan Vazirlar Mahkamasining xazira jam'ar-masi mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda qoplanadi;

2022-yildan boshlab, kelgusi yillarda Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutiladi;

homiyluk xayriyalari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ham qoplanishi mumkin;

v) 2022-yil 1-yanvargacha qadar tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan Kinofestivalga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga foyda solig'ini hisoblashda chegiriladigan xarajatlari sifatida qaraladi, bunda mazkur chegiriladigan xarajatlari soliq solindigan bazaning 2 foizidan oshmasligi lozim;

g) g'oyasi va mazmuni Kinofestival shioriga mos, jahon kinematografiyasi rivojida salmoqli o'ringa ega bo'lgan, milliy qadriyatlar va madaniyatlarini o'zida yorqin aks ettirgan filmlarning ijodkorlari xalqaro ekspertlar kengashi tomonidan diplom, ramziy haykalcha va har biri 20 ming AQSH dollari dan iborat beshta pul mukofoti bilan taqdirlanadi;

d) Osiyo qit'asi va qadimiy Ipak yo'li bo'ylab joylashgan mamlakatlar yosh kinorejissorlarining qisqa metrajli filmlari festivali g'oliblari diplom va quyidagi miqdorlarda pul mukofotlari bilan taqdirlanadi:

1-o'rin uchun – 15 000 AQSH dollari;

2-o'rin uchun – 10 000 AQSH dollari;

3-o'rin uchun – 7 000 AQSH dollari.

8. Toshkent shahar hokimligi (J.A.Artikxodjayev) Kinematografiya agentligi (F.F.Abduxalikov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda 2022-yil va kelgusi yillar Investitsiya dasturi doirasida "O'zbekfilm" kinokonserni hududidagi O'zbekiston Kinematografiya akademiyasi binosini rekon-

struksiya qilish va jihozlashni ta'minlasin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Kinematografiya agentligi (F.F.Abduxalikov) bilan birgalikda 10 kun muddatda hududlarda Kinofestival tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin, shuningdek, uning belgilangan vazifalari 2021-yil 1-sentyabrgacha qadar to'liq amalga oshirilishini ta'minlasin. Bunda, jumladan, quyidagilarni nazarda tutsin:

Kinofestival dasturida belgilangan tadbirlarni yuqori darajada o'tkazish bilan bog'liq tegishli xarajatlarni Kinofestival xarajatlari smetasiga asosan mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan qoplash;

hududlardagi kinoteatrlar va tadbir o'tkaziladigan ob'ektlar, ularga tutash hududlar va olib boradigan yo'llarda ta'mirlash-tiklash va obodonlashtirish ishlarini olib borish hamda Kinofestival doirasida filmlar namoyish etishga tayyorlash.

10. Madaniyat vazirligi (O.A.Nazarbekov) Kinematografiya agentligi bilan birgalikda Kinofestivalning ochilish va yopilish marosimlari va boshqa tadbirlarida konsert-tomoshalar dasturlarini tashkil qilsin.

11. Tashqi ishlar vazirligi (A.X.Kamilov):

a) Kinematografiya agentligi (F.F.Abduxalikov) bilan birgalikda Kinofestivalga:

mehmonlar va ishtirokchilarni O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari orqali taklif etishni ta'minlasin;

BMT, MDH, SHHT, YUNESKO, AYSESKO, FIAPF va boshqa xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy mamlakatlarning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari vakillarini taklif etsin;

b) Kinofestivalga tashrif buyuruvchi mehmonlar uchun Kinematografiya agentligining talabnomalariga asosan O'zbekiston Respublikasiga kirish vizalarining belgilangan tartibda konsullik va boshqa yig'implarni undirmasdan rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

12. Bosh vazir o'rinbosari – turizm va sport vaziri A.A.Abduxakimov Kinematografiya agentligi (F.F.Abduxalikov) bilan birgalikda:

mahalliy va xorijiy investorlarni Kinofestivalga jalb etish uchun "investitsiya paketlari"ni shakllantirish; "investitsiya paketlari" doirasida investorlarga taniq-

li kino yulduzlarini taklif etish va ular ishtirokida o'zlarining reklama va targ'ibotlarini tashkil qilish bo'yicha keng shart-sharoitlar yaratib berish yuzasidan takliflar ishlab chiqsin.

13. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, tegishli vazirlik va idoralarda davlat tasarrufidagi videoekranlar va bilbord ko'rishidagi tashqi reklama ob'ektlarida berilayotgan reklama vaqtining 2021-yil 1-iyun – 1-sentyabr kunlari 5 foizi, 2021-yil 1-sentyabr – 3-oktabr kunlari 10 foizi Kinofestivalni targ'ib qilish uchun ajratilishini ta'minlasin.

14. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy tele-radiokompaniyasi, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, "Duny" axborot agentligi hamda boshqa ommaviy axborot vositalariga Kinofestival faoliyatini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi Kinofestival xarajatlari smetasida doirasida xorijiy ommaviy axborot vositalarida uning reklamasi va targ'ibotini tashkil qilsin.

15. Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov), Milliy gvardiya (R.M. Djurayev) va Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A.X. Qo'ldoshev) Kinofestival tadbirlari, mehmonlari va ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

16. Sog'liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev) Kinofestival o'tkaziladigan joylarda teby tibbiy yordam punktlarini tashkil etsin, tadbirlar o'tkaziladigan vaqtda sanitariya qoidalariga, normalariga va gigiyena normalariga qat'iy rioya qilinishini nazorat qilsin.

17. Davlat bojxona qo'mitasi (M.B. Azimov) Kinofestival ishtirokchilarini hamda ularning yuklarini olib kirish va olib chiqish uchun bojxona rasmiylashtiruvini belgilangan tartibda tez-korlik bilan amalga oshirilishini ta'minlasin.

18. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o'rinbosari – turizm va sport vaziri A.A.Abduxakimov va Kinematografiya agentligi bosh direktori F.F.Abduxalikov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul vazirliklar va idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.A.N. Ripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2021-yil 19-iyun

30-IYUN — YOSHLAR KUNI

“Mening maqsadlarim shunchaki orzu emas!”

Tinimsiz harakat bir kun samarasini beradi deb ko'p bora eshitganmiz. Darhaqiqat, harakatlar maqsadga eltuvchi yagona yo'ldir. Sahifamizning bugungi qahramoni yosh bo'lsa-da, ko'plab yutuqlarga erishgan, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi, 2021-yil Qozog'istondagi “Yilning eng yaxshi yosh olimi” mukofoti sovrindori Islom Asilbekov. U 1994-yil 20-martda Namangan viloyati Chust tumanida tug'ilgan. Jurnalistika yo'nalishida ko'plab mukofotlar sohibi. Islom Asilbekovga bir nechta savollar bilan murojaat etdik.

— Siz uchun yoshlik imkoniyati nima?

— Yoshlik imkoniyati fundamental bilimlarni mustahkamlab olish uchun berilgan davrdir. Har qanday erishayotgan yutuqlar, amalga oshayotgan maqsadlarning negizida yoshlikda olgan bilimlar yotadi. Agar maktabdagi bilimlar mustahkam bo'lsa, bu yoshlikdagi imkoniyat besamar ketmagani bo'ladi. Inson ulg'aygani sari fundamental bilimlarni egallashga qiyinaladi. Jumladan, til o'rganish, she'r yodlash kabilarda biroz qiyinchilik bo'ladi. Kasbni egallash mumkin, ammo bilimni yoshlikda olgan yaxshiroq. Yoshlik kelajakdagi hayotingiz uchun bir maktab. Unda yaxshi o'qisangiz, kun kelib o'z natijasini beradi. Undan tashqari yoshlikning imkoniyati ko'proq o'z ustida ishlashdir.

— Bu yil “Yilning eng yaxshi yosh olimi” mukofotiga loyiq topildingiz. Bu mukofot uchun qachon qiziqish va harakat boshlagandingiz? O'ziga yarasha qiyinchiliklar ham bo'ldimi?

— Bilasizmi, bu mukofot Qozog'istonda joriy etilgan, 2019-yildan beri MDH mamlakatlari yosh olimlari, talabalari va iqtidorli yoshlariga berib kelinadi. Bu yil uchinchi marotaba o'tkazildi. Ushbu tanlovda 21 ta nominatsiya bo'yicha talabalar bellashadi. Men Jurnalistika yo'nalishi bo'yicha o'zimning “O'zbekiston va Hindiston mamlakatlari jurnalistikasida ekologik muammolarning yoritilishi” mavzusidagi ilmiy-tahliliy maqolam bilan ishtirok etdim. Qozog'istonda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi “Bobek” nomli nodavlat-

notijorat tashkiloti bor. Mazkur tashkilot o'z oldiga aynan yosh olimlarni, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy salohiyatini yuksaltirishni maqsad qilib qo'ygan. Tanlov 2019-yilda birinchi marotaba o'tkazilganda ba'zi sabablarga ko'ra qatnasha olmaganman. Ikkinchi yil ham harakat qildim. Lekin bu yil qatnashish va ushbu mukofotga sazovor bo'lish nasib qilgan ekan.

Maqolam badiiy kengash tomonidan yuqori baholandi. Jurnalistika yo'nalishi bo'yicha 14 ta mamlakatning ichida 1-o'rinni qo'lga kiritib, oltin medalga ega bo'ldim. Bu, albatta, men uchun katta yutuq. Maqolalarim boshqa davlatlardagi tengdoshlarimniki kabi monografiya holida chop etildi. Maxsus sertifikat, guvohnoma va diplom bilan taqdirlandim. Fikrimcha, mana shunday loyihalar, rag'batlar katta maqsadlar sari harakat qilayotgan yoshlarga motivatsiya bo'ladi. To'g'ri bu mukofot katta imkoniyatlarni bermas, lekin kasbiy faoliyatni boshlashga yaxshi natija hisoblanadi.

Yana bir narsa, bu yil ushbu mukofot bilan O'zbekistonning ko'plab yoshlari taqdirlandi. Demak, o'zbek yoshlarining salohiyati ham jahon bilan bo'ylasha oladigan darajaga yetib bormoqda va MDH mamlakatlari orasida bu yil O'zbekiston eng ko'p “Yilning eng yaxshi yosh olimi” mukofotini olgan davlat deb e'tirof etildi.

— Yutuqlaringizga sababchi bo'lgan, siz bilan yelkadosh bo'lgan insonlar bormi? Ular haqida ham fikr bildirsangiz.

— Albatta, mening yutuqlarim, erishayotgan natijalarimning bosh

sababchisi, har doim menga motivatsiya berib, qo'llab-quvvatlovchi ota-onam hisoblanadi. Ular har qanday vaziyatda, hatto muvaffaqiyatsizlikka uchraganimda ham menga kuch bera oladi. Birgina misol, universitetga kirishim juda qiyin bo'lgan. Besh yil ketma-ket muvaffaqiyatsizlikdan so'ng oltinchi yili talaba bo'lganman. Besh yil O'zbekiston Milliy universitetining “Jurnalistika” fakultetiga hujjat topshirganman. Hatto 2015-yil 256 ball bilan ham yiqilganman. 1-avgust va 15-avgust men uchun hayotmamorot masalasi bo'lardi. Birida imtihon topshirsam, ikkinchisida javoblar e'lon qilindi. O'shanda ham yaqinlarim, qarindoshlar:

“Bo'ldi, o'qishni yig'ishtir”, deganlarida ota-onam yonimda turgan. Ba'zida “Oddiy qishloqning yigiti, Toshkentdagi eng nufuzli oliy o'quv yurtida o'qishi aqlga sig'maydi”, degan gaplar ham bo'lgan. Shularga qaramay ota-onamning ishonchi meni olg'a qadam bosishga undagan. 15-avgustda imtihondan yiqilganim e'lon qilinsa, 20-avgustdan men yana tayyorlov kurslariga ketar edim. Ilm olish jihatidan meni har doim tushunishgan, to'g'ri, ota-onam oliy ma'lumotli emas, ammo hayot darslarini uqqan insonlar. Ular men uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan.

Yana ota-ona bilan birgalikda ustozlarim ham yutuqlarga erishishimda yelkadosh bo'lgan. Aynan bitta ustozimning ismini ayto olmayman. Hayotimda menga ta'lim bergan, kichik bir narsani o'rgatgan ustozlarimni ham yutuqlarim sababchisi sifatida ko'raman.

— Jamiyatda o'z o'rnini topgan yoshlardan biri sifatida kelajagi uchun endi harakat qilayotgan yoshlarga nima deya olasiz?

— Men o'zimni hali maslahat bera oladigan darajada deb hisoblamayman. Lekin o'zimdanda kelib chiqib hech qachon ortga chekinmaslik kerakligini, oldiga qanday maqsad qo'ygan bo'lsa, unga erishmaguncha o'z ustida ishlashdan to'xtamasligini aytgan bo'lardim.

Nazarimda har doim maqsadni to'g'ri qo'yish kerak. Maqsad holis bo'lsa, u albatta amalga oshadi. Hayotda kimgadir taqlid qilishdan doim tiyilish lozim. O'zligingizcha qolib, ulkan maqsadlar sari harakat qiling. Atrofdagi tanqid, bosimlardan hech qachon tushkunlikka tushmaslik kerak. Har doim iroda mustahkamligi, “Yetti o'lchab, bir kes” maqoliga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qadimgi koreys faylasuflarida shunday gap bor “Agar siz oshib o'tmoqchi bo'lgan tog' baland bo'lsa, uni aylanib o'ting, oshib o'tsangiz ham, aylansangiz ham tog'ning narigi tarafiga o'tasiz”. Bundan shuni xulosa qilish mumkin, yo'llar har xil bo'ladi. Ammo maqsad yagona bo'lishi kerak.

— Kelajakdagi rejalariniz...

— Kelajak uchun rejalarim katta. Bu yil O'zbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universitetining 4-bosqichiga o'tdim. Shu bilan birga O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasida ham faoliyat olib boryapman. Bundan tashqari, Prezidentimizning qaroriga binoan Chilonzor tumanidagi 179-maktabga ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi bo'lib ish boshlaganman. Talaba bo'la turib o'zimning sohamda ishlash kelajakdagi rejalarim uchun fundamental bosqichdagi ko'nikmalar bo'lishiga ishonaman.

Bakalavr bosqichini tugatib, magistraturani ham jurnalistika yo'nalishida davom ettirish niyatim bor. Maktabdagi menga umid bilan boqib turgan, ijodga, jurnalistikaga qiziqishi bor yosh o'quvchilarimga sohamdagi o'zim bilgan bilimlarni o'rgatish uchun “Yosh yuraklar sadosi” nomli to'garak ham ochganmiz. Kelajakda ularning ishlarini nafaqat respublikamiz OAVlarida, balki jahon miqyosidagi nashrlarda ham ko'rish niyatim bor. Buning uchun hozirdan o'quvchilarim bilan ulkan maqsadlar qo'yib, birgalikda harakat qilmoqdamiz.


— Mazmunli suhbat uchun rahmat. Ijodiy faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman!

— Rahmat!

Mashhura NASRIDINOVA suhbatlashdi.



Yoshlardan ayb. izlamang!



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Bugungi bozor iqtisodiyoti davrida ertalabdan kechgacha mehnat qilib, bir oy mobaynida arzimagan bir millionga ham yetmaydigan maoshga kim ham ishlardi? Fikrimning isboti uchun poytaxtimizning ayrim tumanlaridagi bo'sh ish o'rinlari va maoshlarini sizlarga havola qilaman.

Shayxontohur tumanidagi O'zbekiston Yoshlar teatri – liboschi – 0,5 stavka – 469 580 so'm; elektromontyor – 0,5 stavka – 375 669 so'm; chilangar-santexnik – 0,5 stavka – 357 660 so'm; 27-maktabgacha ta'lim tashkiloti – musiqa rahbari – 1 stavka – 600 000 so'm; Toshkent matbaa-noshir kolleji – psixolog – 0,25 stavka – 836 470 so'm; iqtisod fani o'qituvchisi – 0,25 stavka – 270 000 so'm; Toshkent davlat konservatoriyasi – katta ma'mur – 1 stavka – 751 339 so'm; bosh ovoz rejissori – 0,5 stavka – 1 022 392 so'm; operator – 0,5 stavka – 786

664 so'm; kuryer – 1 stavka – 679 330 so'm...

Chilonzor tumanidagi Istiqlol san'at saroyi – farrosh – 0,5 stavka – 715 334 so'm; ko'cha tozalovchi – 0,5 stavka – 356 670 so'm; chiptalarni tekshiruvchi – 1 stavka – 862 070 so'm; 538-sonli bolalar bog'chasiga musiqiy xodim – 0,5 stavka – 930 000 so'm; jismoniy tarbiya bo'yicha tarbiyachi – 0,5 stavka – 715 000 so'm.

Bunday ro'yxatni yana uzoq davom ettirsa bo'ladi. Har bir oyda "Aholi bandligiga ko'maklashish markaz"lari qanchadir ish o'rni yaratilgani, yana ishga yo'llanma berilgani, fuqarolarni ishga joylashtirgani, hattoki kasbga o'qitgani haqida hisobot tayyorlaydi. Yuqoridagi ish stavkalari, maoshlarga nazar tashlasangiz, to'g'risi, ensangiz qotadi. Ko'p tashkilotlarda 0,25 yoki 0,5 stavka deb yozishgan. O'sha maoshni bir oyga taqsimlaydigan bo'lsangiz, urvoq ham bo'lmaydi. Agar bu tashkilotlarga ikkita transportda qatnaydigan bo'lsangiz, 1 400 so'mdan hisoblayvering. Bir

oyga taxminan 128 800 so'm yo'l kiraga, tushlikka o'rtacha hisobda 20 000 so'mdan 460 000 so'm ketadi.

600 yoki 700 ming so'm maosh oladiganlar uyiga nimani olib boradi? Bu maoshga qanday qilib ro'zg'orini tebratadi? Bu maosh bilan farzandini bog'chaga bera oladimi? Bolasining o'qishi uchun kontrakt pulini to'lay oladimi?

Xullas, ko'zbo'yamachilik uchun yaratilayotgan bunday ish o'rinlari aslida kimga kerak? Yoshlarning moddiy ahvolini oladigan maoshi qoniqtirmasa, nima qilish kerak? Shundoq ham yoshlarimizning ko'pchiligi Rossiyaga, Janubiy Koreyaga ishlagani chiqib ketmoqda. Qachongacha ular musofir yurtlarda sargardon bo'lib yurishadi?! Yoshlarning kelajagini kim o'ylaydi? Yoshlarning ishsizligiga kim aybdor? Yoshlarni dangasa, yalqov, ishyoqmas deya ayblashga shoshilmang! Shu o'rinda shoir Abdurazzoq Obro'yning quyidagi she'ri yodimga tushdi:

Bo'sh o'rinlar – musht o'rinlar

(Hazil)

Ishsizlarning demang harchand Ko'tarilgan burunlari. Nega axir qilishmas band Qancha bo'sh ish o'rinlari. Shunaqa ish o'rinlarki, Mushuk chiqmas oftobga-ku. Bir bor kelib ko'ringlarki, Ular o'xshar bo'sh qopga-ku. Maoshlari haminqadar, Yetmas hatto yo'l kiraga. Maqtanishgan eh, shu qadar, Hisob berib naqd xo'jaga. Qorinlarin yara qilgan, Bepul bergan yovg'onlari. Xo'jako'rsin yaratilgan, Kimga kerak yolg'onlari. Bo'sh joy deya izlamanglar, Izlamagan afzal ekan. Laqqa tushib ishlamanglar, Byudjetlari kasal ekan. Lavozimin farqi yo'qdir, Maqtanishga suyagi yo'q. Ishsizlarning vaqti yo'qdir, Soxta ish joy keragi yo'q.

Xonbibi HIMMAT qizi,
jurnalist

26-IYUN — XALQARO GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISH KUNI

Giyohvandlik deganda narkotik va psixotrop moddalarni muttasil ravishda qabul qilishga moyillikning oshib borishi bilan bog'liq og'ir kasalliklar guruhi tushuniladi.

BMT Bosh Assambleyasining 1987-yil 7-dekabrda qabul qilingan rezolyutsiyasiga binoan har yili 26-iyun – Xalqaro giyohvandlik va kashandalikka qarshi kurash kuni sifatida nishonlanadi.

Tahlilchilarning fikricha, giyohvand moddalarning keng tarqalishi bir qator ijtimoiy muammolarga sabab bo'ladi. Giyohvandlik nimadan yoki qayerdan boshlanadi degan savol tug'iladi. Giyohvandlik — sigaret chekish, ularni hidlashdan boshlanadi. Agar ota-onalar farzandiga sigaret, nos xarid qilib kelishni buyursa, ular ota-onasidan yashirib sigaret, nos chekishni, hidlashni o'rganadi.

Giyohvandlik ota-onalarimizning e'tiborsizligi, loqaydligi, uzoqni o'ylamay ish qilishi oqibatida yuzaga keladi. Birgina misol: xavfli o'sma — saratonni keltirib chiqaruvchi moddalarning 45 foizi sigaret orqali organizmga o'tar ekan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lganlar orasida qayd etiladigan o'lmlarning 1,3 foizi giyohvandlik oqibatida yuz beradi. Bir yilda 211 mingta o'lim aynan giyohvandlik oqibatida kelib chiqadi. Yevropada giyohvandlik sabab halok bo'layotganlarning o'rtacha yoshi 35 yoshni tashkil qiladi. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq

xastaliklarga uchraganlar soni dunyo bo'yicha 29 million kishidan ortib ketgan.

Bangifurushlik va giyohvand moddalar iste'moli so'zsiz aholi sog'lig'i va jamoat xafvsizligiga tahdid sifatida ko'riladi. Bizning mamlakatimizda bu illat jamiyatning barqaror rivojlanishiga xalaqit berayotganidan aslo ko'z yumib bo'lmaydi. Giyohvandlikning mudhish oqibatlarini ko'rsatuvchi filmlarni teleekranlarda qayta-qayta namoyish etish zarur. Ayniqsa, bu asarlar o'quvchi-yoshlar o'rtasida namoyish qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan, bangilarni davolash uchun katta miqdorda mablag'lar sarflanadi. Bu mablag'lar davlat

byudjetidan ajratiladi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, bugungi kunda har olti giyohvandning bittasi davolanish imkoniyatiga ega ekan. Bangilarni davolash uchun ajratiladigan sarf-xarajatlar o'z yo'lga, ammo ularning jamiyat hayotiga tahdid solishini ham aslo yoddan chiqarish kerak emas. Shu sababli ham bangilarga ijtimoiy hayotda muammo yaratuvchi sifatida qarab kelinmoqda. Respublikamiz bo'yilik barcha viloyatlarda giyohvandlik va narkologiya singari jamiyat rivojiga xavf soladigan salbiy illatlarga qarshi kurashish uchun maxsus shifoxonalar xizmat ko'rsatmoqda. Inson — oliy mavjudot, oliy qad-

riyat. Hayot shirin, uni mazmunli, mohiyatli, maqsadli o'tkazish esa har birimizning o'z qo'limizda. Ezgu ishlar qilib, tevarak-atrofimizdagi insonlar hurmatiga sazovor bo'lish katta baxt. Mamlakatimizda biz, yoshlar uchun yaratib berilayotgan ulkan imkoniyatlardan samarali foydalanishimiz hamda bildirilgan ishonchni oqlashimiz darkor. Giyohvandlik va bangifurushlik kabi jamiyatimizga xavf solayotgan salbiy illatlardan uzoq yurishimiz, zararli illatlarga qarshi kurashish har birimizning burchimizdir.

Mahiyot ODILOVA,
Navoiy shahridagi 2-maktab
o'quvchisi

Bir yilda 211 ming inson...

ВЫБОРЫ-2021



ЭЛЕКТОРАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА МОЛОДЕЖИ

С первых лет обретения независимости Республика Узбекистан приступила к коренному реформированию всех сфер жизнедеятельности государства и общества. Особое значение придавалось и преобразованиям в избирательной системе. Результатом последовательной, поэтапной модернизации явилось создание избирательной системы, отвечающей высоким демократическим требованиям.

В современных условиях политические институты уделяют все больше внимания вопросам привлечения молодежи к решению вопросов государственной важности, а также ее воспитания в духе патриотизма и приобщения к существующим демократическим ценностям. Проблемы электоральной активности юношей и девушек далеко не уникальны для многих государств. Например, к выборам в Германии приучают с детства: в детских садах и школах играют в тематические игры, ребенку дают понять, что этот процесс очень важен для его дальнейшей взрослой жизни. Для подрастающего поколения в интернете создана специальная система, которая в формате тестирования позволяет каждому определить свои партийные предпочтения.

Государство в обязательном порядке гарантирует проведение предвыборной агитации. Осуществляется на предвыборных собраниях путем выпуска афиш, плакатов, рекламы, призывов, а также через средства массовой информации, правом доступа к которым обладают все кандидаты и политические партии. Учет опыта развитых стран при совершенствовании избирательного законодательства более способствует полному осуществлению принципа свободы выбора, дальнейшей демократизации электоральной системы в Узбекистане. В таких условиях актуальность воспитания молодых избирателей в духе уважения к существующим институтам непосредственной демократии выходит на первый план. Успешность буду-

щего развития государства и общества зависит в том числе и от того, насколько политическая элита смогла подготовить себе достойных преемников, которые имеют навыки взаимодействия с населением и институтами гражданского общества.

В этой связи участникам избирательного процесса необходимо дать знания о системе и организации деятельности, направленной на повышение избирательной активности молодежи. Такая деятельность осуществляется как государством, так и другими субъектами социальной жизни, в частности вузами. Используются новые формы вовлечения юношей и девушек в общественно-политическую жизнь, такие как молодежный парламент.

Большинство зарубежных экспертов определяют достаточно традиционный и весьма однообразный спектр факторов, связанных с электоральной активностью избирателей:

- особенности общественно-политической жизни;
- тип избирательной системы;
- влияние политических технологий;
- уровень политической и правовой культуры.

Последний фактор во многом предопределяет электоральное поведение избирателей. Гражданин должен знать, какими законами регламентированы выборы, каковы права и обязанности их участников. Ответственный, взвешенный политический выбор предполагает наличие адекватных представлений об основных принципах функционирования государства, его институтов, о компетенции выборных властных органов.

(Окончание на 8-й стр.)

Новости

Моноцентры: перезагрузка

Моноцентры «Ишга мархамат» становятся государственными учреждениями.

Это предусмотрено постановлением Кабинета Министров о дополнительных мерах по совершенствованию системы профессионального обучения малоимущих и безработных граждан, повышению эффективности деятельности органов труда.

В соответствии с документом ООО «Моноцентр «Ишга мархамат» Яшнабадского района реорганизуется в государственное учреждение «Моноцентр «Ишга мархамат» города Ташкента. Такой же статус приобрели аналогичные структуры в Республике Каракалпакстан и областях.

Здесь внедряют системы биометрической авторизации и отслеживания граждан, участвующих в общественной работе и получающих поощрительные субсидии. На условиях аутсорсинга будут привлекать психологов для адаптации к рынку труда молодежи, женщин и мигрантов, возвращающихся из-за границы.



Английский язык и программирование

В Чимбайском районе Республики Каракалпакстан в целях обеспечения занятости молодежи организованы краткосрочные учебные курсы.

Юноши и девушки могут повысить знания и навыки по английскому и русскому языкам, компьютерной грамотности и программированию, кройке и шитью.

В настоящее время к занятиям привлечены более ста представителей подрастающего поколения.

Курсы организованы отделом народного образования, Агентством по делам молодежи и районным хокимиятом.



Такая нужная помощь

75 молодых людей из Каттакургана бесплатно получают водительские удостоверения.

Таким итогом завершился день открытых дверей, проведенный организацией «Ватанпарвар» в Каттакурганском районном учебном спортивно-техническом клубе. С его деятельностью ознакомились юноши и девушки, внесенную в «молодежную» тетрадь, учащиеся районных школ.

Многих заинтересовала возможность бесплатно обучаться вождению. Предоставляется молодым людям из малообеспеченных семей. Финансирование производится за счет средств местного бюджета. В дальнейшем на таких условиях планируется организовать учебу и по другим направлениям.



Сделать правильный выбор

В Бухарской области проводится проект «Моя мечта», направленный на профориентацию учащихся.

Для ребят организуются поездки на крупные промышленные предприятия, в престижные организации и центры ремесленничества. Во время экскурсий также запланировано посещение архитектурных памятников и других достопримечательностей.

Так, учащиеся специализированной общеобразовательной школы №4 города Бухары побывали на предприятии Выхого cotton textile cluster. Мальчики и девочки увидели все этапы производства тканей, пошива готовых изделий. Узнали, где и как можно обучиться этим навыкам, приобрести полезную и востребованную на рынке труда профессию.

Увлекательная поездка завершилась посещением комплекса «Ляби хауз».



КАЖДЫЙ МОЙ ГЕРОЙ — ВСЕЛЕННАЯ

В семнадцатый раз 27 июня страна отмечает День работников печати и СМИ. Обилие информации, разные способы ее подачи, живой язык репортажей и интервью создают у зрителей, слушателей, читателей ложное ощущение работы без особых усилий. Кажется, беседы льются сами собой и так же выстраиваются абзацы очерков... Вряд ли кто-то задумывается, как из юноши или девушки, отличившихся в школе умением писать сочинения, вырастают известные публицисты. «Буду журналистом!» — говорит старшеклассница, подразаумевая парадную сторону (всегда на виду, в курсе событий) выбора, не подозревая, какой труд стоит за профессией, названной одной из самых стрессовых.

ПРОФЕССИЯ — СУДЬБА

Флер романтики исчезает с постижением глубинного смысла, когда идет становление специалиста, отвечающего за каждое слово. Ряды будущих корреспондентов, репортеров покидают те, кто не смог обрести своего стиля, не научился представлять события, не раскрыл тайн языка. Как и многие другие, творческая профессия, представила которой — «штучный продукт», покоряется упорству, трудолюбию.

Путь от первой заметки практиканта до общественного признания способен пройти не каждый. С него легко свернуть, идти по нему достойно — удел сильных.

Сегодня у нас в гостях заместитель главного редактора сайта uz24.uz **Юлианна Мороз**, удостоенная медали «Келажак бунёдкори», лауреат национальной премии «Олтин калам».

— Вы осознанно сделали выбор: только журналистика — и никаких альтернатив?

— На журфак Национального университета Узбекистана поступала целенаправленно. Его выбрала еще в колледже туризма. Там мы как-то решили выпустить свою газету. Сам процесс был интересен, хотя и далек от идеала, но нам казалось, что в колледже столько событий, столько интересных людей, а о них так мало говорят. К тому же в то время я уже читала работы по журналистике наших и зарубежных авторов. Сейчас могу точно сказать:

представления о сфере были далеки от реальности, больше иллюзий.

— Ставили перед собой какие-то цели во время учебы? Хотели работать именно в печатных СМИ?

— Уж точно не представляла себя в офисе с режимом работы от звонка до звонка. Хотелось практики, движения, рассказывать об интересных людях. Искала возможности проверить себя: справлюсь или нет? В университете занимались преимущественно теорией, поэтому я недолго оттягивала момент этой проверки. Не дожидаясь приглашения, позвонила в редакцию «Правды Востока». Благодарна, что подержали, от первокурсницы без опыта работы не отмахнулись, а скинули пробное задание. В «ПВ» тогда отписала два небольших материала, но работать не пришла, это случилось пару лет спустя.

Сначала была череда других СМИ: газеты, журналы, сайты, практика на радио. Одновременно выходили заметки в семи разных изданиях. Не для гонора, а ради интереса. В людях и событиях находила вдохновение. Мне это по-настоящему нравилось. В «Правду Востока» отправилась за компанию с сокурсницей, именно она хотела там работать, а я просто ее решила поддержать. Она так и не пришла в «ПВ», я же так осталась на без малого семь лет.

— Получаться стало сразу или приходилось переписывать материалы? Каким жанрам отдавали и отдаете предпочтение?

— Пришла в редакцию с багажом публикаций, одной из которых особенно гордилась. Это интервью с ведущим КВН Игорем Кучмаром. На игры Клуба веселых и находчивых попала случайно. Увидев, насколько они талантливые и как это здорово, что у нас есть такие ребята, решила провести интервью с ведущим. Нашла его контакты, встретилась с героем, подготовила текст. Казалось, у меня неплохо получается...

В «Правде Востока» спустились с небес на землю, многому пришлось учиться. Переписывала материалы по сто раз — от заголовка до последнего слова. Но я хотела доказать, что смогу. Себе в первую очередь. Год держали на «сухом пайке», отправляя исключительно на конференции, которых было много. Верхний предел — четыре мероприятия одновременно. Успевала отписать все, поздно, но сдавала. Самой тяжелой оказалась международная конференция по солнечной энергетике, с одной частью в Паркенте. Нужны были краткие комментарии иностранных гостей. Снег, ветер и задача «возьми около 20 комментариев». Тяжело и весело одновременно.

Большее всего нравятся очерки и интервью. У нас столько героев — разных, творческих, увлеченных, с горящими глазами! После подобных встреч многое меняется в восприятии той или иной профессии, практически не бывает разочарований. От других жанров не отказывалась. Были репортажи, попытки журналистского расследования и, конечно, весь спектр информационных жанров.

— Как обычно работаете над статьей?

— Если мне близка тема или интересен герой (вне зависимости от его деятельности), то пишу быстро, слова находятся сами. Раньше могла готовить статью ночью, рано утром. Сейчас не так, выработалось более размеренное отношение.

— Есть ли какие-то особенные материалы, о которых часто вспоминаете? А любимые герои?



— К примеру, статья о работе Николая Русанова и Нины Штонды. Эти имена много значат для научного мира, сохранения и приумножения коллекции Ботанического сада. Тандем, который предан своему делу и не сходит с выбранного пути. Зиновий Новицкий, занимающийся сдерживанием песков на дне Аральского моря, выживал и продолжает создавать «сады» из солеустойчивых растений. Специалист с исключительным оптимизмом и особым бережным отношением к профессии. Борис Голендер, помогающий многим открывать Ташкент, так рассказывать истории туристам может только он. Впечатлил диалог с руководителем компонента проекта ПРООН Нодирой Зикриллаевой, говорили с ней о коррупции и способах борьбы с этим явлением.

Одно из недавних интервью — беседа с лидером российской рок-группы «Ночные снайперы» Дианой Арбениной. Встретились перед ее концертом в Ташкенте. Талантище, невероятно искренний и открытый человек, вдохновленный творчеством и заражающий всех на своем пути бесконечным потоком энергии и драйва.

Говорю о разных людях, но их связывает одно: нашли себя и очень хорошо понимают, что именно они делают и для кого, как это важно для других. Назвала бы больше имен. Мне повезло встретить немало людей-вселенных — с яркими идеями и четкими жизненными установками.

— О чем еще вам хочется сказать в журналистике?

— О том, что могло бы вдохновить читателей. А еще, на мой взгляд, нужно чаще говорить о проблемах, социальных преградах.



— Что в работе считаете самым трудным и что приносит наибольшее удовлетворение?

— Самое трудное — работать в выгоревшем состоянии. Тогда кажется, что все делаешь не так, можно лучше. Еще учусь контролировать баланс сил. Не всегда получается.

Настоящее счастье — сделать интервью с потрясающей личностью. Беседа с Дианой Арбениной была именно такой. Монтировали ролик до трех часов ночи, день до и после беседы прошел

Большее всего нравятся очерки и интервью. У нас столько героев — разных, творческих, увлеченных, с горящими глазами! После подобных встреч многое меняется в восприятии той или иной профессии, практически не бывает разочарований.

достаточно напряженно. Но процент усталости нулевой, потому что работали на подъеме, когда кажется, что можешь сделать абсолютно все. Это, конечно, напрямую связано с героем.

— Чего, на ваш взгляд, не хватает современной журналистике и как вернуть интерес читателей?

— Не хватает жанрового разнообразия. Для привлечения внимания аудитории нужны интересные материалы. Всегда радуюсь, когда у коллег получается найти удачную тему и хорошо ее подать или докопаться до сути социальных проблем. Некоторые называют это негативом, но журналисты меньше всего стремятся кого-то очернить. Им важно поднять ак-

туальный вопрос, сказать о том, что беспокоит многих.

Нравятся слова журналиста и блогера Бахтияра Насимова, что невозможно каждый день писать нетленку. Очень верное замечание. Для по-настоящему хороших материалов, которые потом вспоминаешь, нужно время. Его, как правило, всегда не хватает.

— Что в вашей жизни изменилось с получением премии «Олтин калам» и государственной награды? Как отнеслись к такой оценке своего труда?

— На «Олтин калам» подавала папку материалов: про сноса домов и отношение к экологии, освещались и другие темы. Мне кажется, в моем возрасте рано получать такие награды. Не понаслышке знаю про «синдром самозванца», и всегда есть ощущение, что хорошее — это случайность...

Когда мы всей группой приехали для награждения в здание Кабинета Министров, на входе мою фамилию не сразу нашли в списке и сказали: «Наверное, вы ошиблись». А за день вышел официальный документ, где говорилось о награждении медалью «Келажак бунёдкори». Меня поздравляли знакомые и коллеги. Однако в тот момент поверила в ошибку и уже собралась уезжать. Другая сотрудница оставила меня и перепроверила список. Фамилия нашлась, но до последнего я думала, что все происходящее нереально.

На меня сильнее повлияло включение в пресс-пул Президента, та жизнь, перемены и события, на которые мы смотрели глазами государства. В этом году в состав журналистов, сопровождающих его в поездках, вошли коммерческие СМИ. Раньше были только официальные. Принимала участие от сайта uz24.uz в поездках Президента в Наманганскую, Ферганскую, Самаркандскую, Ташкентскую, Сурхандарьинскую области, офи-

циальных встречах в резиденции и объездах по столице. У руководителя страны всегда насыщенный и плотный график, а в регионах бесконечный поток объектов и людей — трудолюбивых, талантливых, отзывчивых. Такой концентрации не встретишь за пару дней при любом другом раскладе. Отличная возможность посмотреть на республику с разных точек зрения. Подобные поездки проходят стремительно, с хорошей информационной базой. Всегда есть о чем рассказать, и запоминаются они, конечно, надолго, легкими их не назовешь. Колоссальный опыт для всех новых участников пресс-пула. Про каждого из коллег я бы сказала, что они профессионалы. И снова такое стечение обстоятельств назвала бы счастливым совпадением. Повезло.

— Что считаете главным для журналиста XXI века?

— Умение держать удар перед обстоятельствами и не «сгорать» в процессе работы.

— Какой видите журналистику будущего?

— Интересной, динамичной, живой.

— Могли бы поменять профессию?

— Думаю об этом часто. Не ухажу, потому что остается что сказать.

— Советы будущим журналистам...

— Помните известное высказывание Конфуция: «Выбери работу по душе, и тебе не придется работать ни одного дня в своей жизни»? Этого бы и пожелала: выбирать только то, что вдохновляет, и ставить перед собой самые немислимые цели. Как показывает практика, мечты часто сбываются.

Беседовала
Ольга АЛЕКСАНДРОВА



НАСЛЕДИЕ

В мире есть одна великая истина, которая гласит: «Счастливы лишь тот человек, у которого есть мечта и который стремится к ее осуществлению».

Абдулла Кадыри

ОБНОВЛЕННОЕ В ГЛАЗАХ ПОКОЛЕНИЙ

Изучение жизни и творчества адиба (литератор, писатель), наслаждение его художественным наследием, в частности романом «Минувшие дни», характеризует тягу нашего общества к слову мастера. Когда-то эта книга в личной библиотеке воспринималась как сигнал неблагонадежности. Те времена канули в прошлое, чего нельзя сказать о ценности первого узбекского романа, который не подвластен годам.

125-летие Абдуллы Кадыри в 2019 году широко отметили во всех регионах страны. Не обошли вниманием дату и поклонники мастерства писателя за рубежом.

К сожалению, оригинальные произведения и стремление обогатить духовность своего народа не спасли автора от чудовищной машины репрессий... Он не прожил даже полувка. Сколько бы мог написать еще этот феномен, оставивший после себя яркий след из романов и рассказов, драм, фельетонов и публицистических статей!

С целью осуществления пяти важных инициатив, выдвинутых Президентом Республики Узбекистан, в академическом лицее при Ташкентском государственном юридическом университете организован литературно-художественный вечер, посвященный разностороннему наследию уникальной личности.

Абдулла Кадыри через своих героев призывал народ к свету, свободе, чести, простым языком говорил об общечеловеческих ценностях, на которых держится земля. Отабек, Кумуш, Анвар, Рано пришли в каждый дом, тысячи людей задумываются над их судьбами, возвращаются в прошлое. Со страниц романов «сходит» к современному поколению история родного края.

Литератор, проповедующий идеи добра, «воскрес» и на сцене музея Абдуллы Кадыри, где проходило перевоплощение учащихся лица. Время потекло вспять. Факты биографии заставляли участников мероприятия проживать судьбу писателя и публициста, отрывки из произведений возвращали в минувшие дни. Юноши и девушки исполняли народные песни и танцы, стихи, которые вызвали восторг зала.

Лайло Тагиева, организатор мероприятия, отметила: — Творчество Абдуллы Кадыри — неисчерпаемое сокровище. Много лет нужно для его изучения. О литературном наследии основоположника узбекской романистики зарубежные читатели пока могут судить лишь по двум произведениям, переведенным на английский язык. Это «Минувшие дни» и «Скорпион из алтаря». Перевод других — дело времени.

На мероприятии присутствовали члены профессорско-преподавательского состава ТГЮУ, а также академического лица. Гости дали высокую оценку выступлению учащихся.

В завершение организаторы и участники литературно-художественного вечера награждены почетными грамотами и памятными подарками от администрации университета и кафедр.

Шахноза БАХТИЁРОВА,
учащаяся академического лица при ТГЮУ



Одно из самых ярких впечатлений — интервью с Дианой Арбениной.

КУЛЬТУРА СВЕТ

Регистан в VR-формате

В республике решили оцифровать исторические объекты, памятники и архитектурные сооружения.

Проект реализуется Национальной ассоциацией электронных СМИ, Агентством кинематографии и американской компанией Global Digital Heritage в рамках программы «Новый Узбекистан. Новый взгляд».

Исторические объекты реконструируют в формате VR – дополненной реальности. Все желающие смогут ознакомиться с памятниками в онлайн-формате на специальном ресурсе. Представители Global Digital Heritage займутся обучением специалистов работе с дронами, камерами.

Пилотный проект стартует в Самарканде, а первыми объектами для оцифровки станут усыпальница Гур Эмир, мечеть Биби Ханум, древнее городище Афросиаб, обсерватория Улугбека, площадь Регистан и мавзолей Джума.

Священный, уникальный

Завершена реставрация Катталангарского Корана. Работы начались еще в 2019 году.

В восстановлении священной книги приняли участие специалисты Национальной библиотеки имени А.Навои, Фонда развития и культуры при Министерстве культуры, Управления мусульман Узбекистана.

Работы осуществляли реставраторы Лувра в три этапа. Сначала был создан план реставрации, проведены письменные описания и фотофиксация. Потом проходил сам процесс реставрации тринадцати страниц уникальной рукописи. Больше года они находились под прессом, после чего их извлекли и поместили в специальную упаковку.

Катталангарский Коран долгое время хранился в мечети Лангар-ота в Кашкадарьинской области и является одним из старейших в исламском мире. Создан в последней четверти VIII века – в период формирования правил арабской грамматики.

Балет? Лазги!

В ГАБТ имени А.Навои состоится балетная постановка «Лазги» под патронажем штаб-квартиры ЮНЕСКО.

Спектакль поможет распространить танцевальную традицию Узбекистана на международной культурной арене. Хореограф – выпускник балетной школы Берлинской национальной оперы Рауль Раймондо Ребек. Премьера запланирована на 4 сентября.

Напомним, 12 декабря 2019 года в Боготе (Колумбия) Межправительственный комитет ЮНЕСКО включил хорезмский танец лазги в Репрезентативный список нематериального культурного наследия человечества.

Город мастеров

В столице Центральным выставочным залом проходит республиканская выставка современного искусства «Navqiron O'zbekiston».

Цель – поддержка и раскрытие потенциала молодых художников в возрасте от 23 до 35 лет из всех регионов страны, популяризация их творчества.

Работы сначала отбираются рабочей группой и рекомендуются для показа на выставке. Их оценивают члены жюри, которые впоследствии выдают победителей. Последних награждают золотой, серебряной и бронзовой медалями, дипломами и ценными призами.

Экспозиция продлится до 30 июня.

ЭЛЕКТОРАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА МОЛОДЕЖИ

(Окончание. Начало на 5-й стр.)

Как известно, Избирательный кодекс стал реальным воплощением усилий Узбекистана в полной мере обеспечить базовые принципы демократических выборов, закрепленные в международных документах. Безусловно, документ будет служить поступательному утверждению демократических процедур, качественному развитию технологических и правоприменительных механизмов в выборной сфере. В этой связи перед всеми участниками электорального процесса стоит важная задача – глубокое изучение норм Избирательного кодекса и их эффективное применение на практике.

На основе этих знаний у избирателя формируется позитивное отношение к выборам, вырабатываются навыки активного участия в политической жизни страны, региона, местного сообщества. Он уделяет больше времени изучению партийных программ, информации о кандидатах, мероприятиям, проводимым в агитационный период, не ограничиваясь лишь традиционным посещением избирательного участка в день выборов. Кроме того, должно быть уделено больше внимания созданию условий для голосования граждан, испытывающих в этом затруднения в силу не зависящих от них обстоятельств. Необходимо помнить, что участие в выборах – право, а не обязанность.

Сегодняшние юноши и девушки – будущее нашей страны, именно им предстоит принимать жизненно важные решения. Это та среда, которая легко впитывает нововведения. Поэтому демократические ценности, которые только начинают прорастать в Узбекистане, наиболее активно воспринимаются именно молодежью. Это дает надежду на то, что новое поколение руководителей будет управлять страной исходя из современных методов, позиций и ценностей.

Известно, что право избирать существует только у граждан, достигших 18 лет. В данном возрасте молодежь настроена более оптимистично, легко поддается влиянию со стороны рекламы предвыборных кампаний кандидатов. Зачастую голосует не умом, а под воздействием эмоций или по примеру родителей и за того же кандидата, кото-



рого выбрали они. К тридцати годам молодые люди набираются опыта, у них формируется гражданская позиция. Они точно знают, чего ждут от жизни, делая в соответствии с этим свой выбор. Таким образом, существует прямая зависимость между возрастом избирателя и тем, насколько обдуманно сделан выбор.

К средствам по повышению электоральной активности подрастающего поколения можно отнести, в частности, организацию специализированных мероприятий, направленных на поддержание интереса к выборам, избирательным процедурам, избирательному праву, избирательным технологиям. В свою очередь, они могут быть как досугового плана в виде акций, выставок, спортивных состязаний, соревнований, так и образовательного и научно-исследовательского характера – деловые и ролевые игры, конкурсы научных работ, олимпиады, семинары, конференции. Немаловажную роль могут сыграть и СМИ.

Не менее важны политологические средства, под которыми, как правило, подразумевают различного рода конкретные обещания кандидатов и партий в ходе избирательных кампаний. Еще один интересный способ – рассылка смс-сообщений с призывами прийти на избирательный участок. Например, этот метод использовался в США в силу своей экономичности и эффективности. Исследования показали, что сообщения, рассылаемые на телефоны молодых избирателей, оказывают наибольший мобилизационный эффект.

Также важны организационные средства – создание специализированных структур, например, Агентства по делам молодежи.

Список можно дополнить правовыми средствами, в числе которых стоит назвать легальное закрепление форм участия подрастающего поколения в общественно-политической жизни через такие институты, как молодежный парламент, общественные юношеские организации, и в целом создание соответствующей нормативной базы.

Ключевым фактором для формирования такой деятельности должно стать создание институциональных основ массового политического образования и просвещения через активное взаимодействие с учебными учреждениями. Указанная деятельность на текущий момент должна развиваться в следующих формах:

- Введение в школах, вузах специальных предметов, в рамках которых изучались бы основы избирательного права. Большое внимание здесь стоит уделить таким предметам, как конституционное право, учебным курсам по изучению избирательного права.

- Подготовка преподавательских, тренерских кадров (факультаторов) для организации тренинговых программ, специализирующихся в этой области.

- Развитие молодежной волонтерской деятельности в сфере реализации общественно-политических и благотворительных проектов, выработки практических навыков осознанного участия в работе политических партий.

- Привлечение молодежи к участию в тематических конкурсах по избирательному праву и иных мероприятиях образовательного и научного плана, в частности, организованных ЦИК Республики Узбекистан.

Омонулла
МУХАМЕДЖАНОВ,
профессор ТГЮУ



SAYLOV QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK MUQARRAR

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Ma'lumki, shu yil 8-fevral va 31-may kunlari qabul qilingan qonunlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu o'zgartirishlar Markaziy saylov komissiyasining ham bir qator qarorlarini amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirishni taqozo qiladi.

Shu nuqtaiy nazardan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2019-yil 11-sentabrdagi "Saylov va referendumni tashkil etish hamda o'tkazish sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirishlar kiritildi.

Mazkur hujjat bilan Markaziy saylov komissiyasining ushbu qarorining 1-bandiga hamda qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Yo'riqnomaning 10, 12 va 18-bandlariga qo'shimchalar kiritilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining V1 bobi Saylov va referendumni tashkil etish hamda o'tkazish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik deb nomlangan bo'lib, 512 - 519- moddalarni o'z ichiga oladi. Ushbu moddalarda quyidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o'tkazuvchi komissiyalarning faoliyatiga aralashish;

- ushbu komissiyalarning qarorlarini ijro etmaslik;

- Nomzodning, ishonchli vakilning, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlarini buzish;

- Saylovoldi tashviqotini, referendumga qo'yilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish shartlari va tartibini buzish;

- Nomzodlar, siyosiy partiyalar to'g'risida yolg'on ma'lumotlarni tarqatish;

- Saylovga yoki referendumga tayyorgarlik ko'rish va saylov yoki referendum o'tkazish jarayonida axborot hamda tashviqot materiallarini qasddan yo'q qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast yetkazish;

- Saylovni yoki referendumni moliyalashtirish tartibini buzish;

- Jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov yoki referendum natijalari taxminlarini chop etish (e'lon qilish) tartibini buzish kabi holatlar yuzasidan javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 245-moddasiga asosan 512-519-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudi tomonidan ko'rib chiqilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari namunaviy tuzilmasi tasdiqlangan.

Shundan kelib chiqqan holda muhokamaga kiritilgan Markaziy saylov komissiyasi qarorining 1-bandi to'rtinchi xatboshidagi "ma'muriy sudlar" degan so'zlar "jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari" degan so'zlar bilan almashtirilmoqda.

Yo'riqnomaning 4-bandida bunday huquqbuzarliklar sodir etilganligi aniqlangan hollarda tegishli saylov komissiyalari vakolatli shaxslari tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma tuzilishi belgilangan. Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 281, 282-moddalarida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaning mazmuni va Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaning jo'natish bo'yicha talablar belgilangan.

Shundan kelib chiqqan holda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish materiallari MJKning 281, 282-moddalarida nazarda tutilgan talablar buzilgan holda jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudiga taqdim qilingan taqdirda, ushbu sudning asoslantirilgan yozma talabiga ko'ra 12 soatdan kechiktirmasdan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaning tuzgan organ tomonidan kamchiliklar bartaraf etilishi shart degan mazmunda bayon etilyapti.

Saylov va referendumni tashkil etish hamda o'tkazish sohasidagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ushbu o'zgartirishlar natijasida saylov qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik muqarrarligi ta'minlanishi saylov prinsiplarining mustahkamlanishiga, saylov tizimining yanada demokratik bo'lishiga, ochiqlik va oshkorlik prinsiplarining mustahkamlanishiga olib keladi.

Bahodir YUNUSOV,
Markaziy saylov komissiyasi
doimiy a'zosi.
O'ZA

O'ZBEKISTON XALQARO MEHNAT TASHKILOTINING KONVENSIYASINI RATIFIKATSIYA QILDI

"Xalqaro mehnat tashkilotining mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashish asoslari to'g'risida 187-sonli konvensiyasini (Jeneva, 2006-yil 15-iyun) ratifikatsiya qilish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.


Mazkur konvensiya XMTning ustuvor konvensiyalaridan biri hisoblanib, uning maqsadi - ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasini takomillashtirish.

Hozirgi vaqtda XMTning bu konvensiyasi 49 ta davlat, shu jumladan, MDH mamlakatlaridan Qozog'iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Konvensiyaning 2-moddasida konvensiyaning har bir a'zo davlat ish beruvchilar va ishchilarning eng e'tiborli tashkilotlari bilan kelishgan holda milliy dastur ishlab chiqish orqali kasb kasalliklari, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar va insonlar o'limining oldini olish maqsadida mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashish asoslari taalluqli bo'lgan prinsiplarni hisobga olgan holda mehnat xavfsizligi va gigiyenasini sohasidagi xalqaro standartlarni samarali joriy etishga xizmat qiladi.

Fayzullo YAHYOYEV,
O'ZA muxbiri

SAXOVAT



Bugungi kunda yer yuzining 40 foiz aholisi toza ichimlik suvi tanqis bo'lgan hududlarda yashaydi. Butun dunyodagi 7 milliarddan ziyod insonning 3 milliardini ifloslangan, iste'molga yaroqsiz suv ichmoqda. Eng achinarlisi, yuqorida ta'kidlangan 40 foiz va 3 milliardning orasida yurtodoshlarimiz ham bor. Respublikamizning chekka tuman va qishloqlarida elektr energiyasi, tabiiy gaz bilan birga toza ichimlik-suviga bo'lgan ehtiyoj ham katta.

O'RTAQISHLOQ — BOY QISHLOQ

Shunday qishloqlardan biri Jizax viloyatining Zomin tumanida joylashgan. "Chorvador" MFYga qarashli O'rtaqishloq aholisi mana necha yillardan buyon ichimlik suvi ni olis masofadan tashib ichardi. Biroq u suvni ham toza, iste'mol uchun yaroqli deb aytysh qiyin. Sababi suv bir yarim oyda bir marotaba keladigan ariqdan olinadi. Buning ustiga tashib keltirilgan suv aholi uylaridagi hovuzlarda saqlanadi. Qish kunlarida-ku bilinmas, ammo yozning jazirama issig'ida haftalab turgan suvni yaroqli deb bo'ladimi?!

Bundan tashqari, XXI asrga kelib global isish natijasida turli xil yuqumli kasalliklar ko'paymoqda. Yaroqsiz suv ichish oqibatida virusli kasalliklarning kelib chiqishi va avj olishi muqarrar. Keyingi paytda bu yerda ham bolalar orasida xalq tilida "sariq kasal" deb ataluvchi gepatit A virusi ko'p tarqalgan. O'rtaqishloqda 70 xo'jalik ana shunday og'ir sharoitda yashashga majbur edi.

Qishloq faollari bir necha marotaba bu masala bo'yicha mutasaddi tashkilotlarga murojaat qilgan. Yuqoridan har safar quruq va dalal berilavergach, ular "ArTel" kompaniyasidan yordam so'radilar. "ArTel" kompaniyasi rahbariyati

xalq duosini olish va aholi turmush tarzini yaxshilashga ko'maklashish maqsadida mazkur murojaatni tez fursatda ko'rib chiqib, ijobiy hal etdi. "ArTel" kompaniyasi tomonidan o'taqishloqliklar uchun artezian qudug'i qazib berildi. Qisqa muddat ichida 200 metr chuqurlikdan ichish uchun yaroqli bo'lgan toza suv qazib chiqarildi. Ushbu loyiha uchun jami 300 million so'm sarflangan. Ko'rsatilgan yordamdan qishloq aholisi nihoyatda mamnun.

"Qishlog'imizga suv keldi, biz boy bo'ldik endi. Chunki suvi bor qishloq, suvi bor xonadon boy bo'ladi", deydi qishloq ayollaridan biri.

Barchamizga ma'lum, qishloq aholisining asosiy daromad manbaji dehqonchilik va chorvadan. Ekin o'stirish uchun ham, mol boqish uchun ham suv bo'lishi kerak. Endi o'rtaqishloqliklar uchun bu muammo emas. Sababi yer tagidan qazib chiqarilayotgan suv tozalaniib o'rnatilgan maxsus bochkaga quyiladi. Suvning ifloslangan qismi esa qishloq markazida joylashgan hovuzga yig'iladi va undan ekinlar va hayvonlarni sug'orishda foydalaniladi. Bulardan ko'rinib turibdiki, harakat qilinsa har qanday muammoga yechim topish mumkin. Faqat ozgina mas'uliyat bo'lsa bas!

Lobar QODIROVA

Targ'ibotchilar so'z aytsin!

Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Shu jihatdan qaraganda, 2021-yil 26-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori imzolanishi mamlakatimiz ma'naviy-ma'rifiy hayotida katta voqea bo'ldi.

E'tiborga molik tarafi, har bir umumiy o'rta ta'lim maktabida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etilib, barcha maktablarga adib va jurnalistlar, mahoratli adabiyot va tarbiya fani o'qituvchilari jalb qilindi.

2020-2021-o'quv yilining III choragidan O'rta tashchirchiq tumanidagi 9-maktabda targ'ibotchi sifatida ish boshlagan Iroda PO'LATOVA bu borada shunday fikrda:

— Har bir o'quvchi — bir dunyo. Agar uning ijod va so'zga ixlosi bo'lsa, bu olamni borliqqa sig'dirish dushvor. Demokchimanki, o'quvchilar, ayniqsa, ijodkor o'quvchilar bilan ishlashda yanada ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ldik. San'atga, adabiyotga mehr qo'ygan bolalarning qalbida hech qachon yomonlik kurtak yozmaydi. Har bir o'quvchining jinday bo'lsa-da iqtidori, qobiliyati bor. Maktablardagi ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchining asosiy vazifasi mana shu iqtidor uchunini alangalash. Targ'ibotchilik — yangi yo'nalish. To'g'ri, bundan avval ham iqtidorli o'quvchilar bilan to'garak va boshqa mashg'ulotlarda mahorat darslari olib borilgan. Ammo targ'ibotchi sifatida ishlaganda mas'uliyat ortadi. O'tgan qisqa fursat mobaynida o'quvchilar bilan ishlashda anchagina ko'nikmalarga ega bo'ldik. Yozgi ta'til davrida ham iqtidorli o'quvchilar bilan mashg'ulotlar

olib borilyapti. Bir sinfda, bir maktabda, hech qursa, bir o'quvchi teran tafakkurli, dunyoqarashi keng, yuksak ma'naviyatli bo'lib kamol topsa, istaymizmi-yo'qmi, yosh sinfdoshlari ham unga ergashadi, undan andoza oladi. Biz, targ'ibotchilar esa ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlab, iqtidor va qobiliyatlarini yanada o'stirishga kamar-basta bo'lamiz.

— Maktablarda iqtidor nihollari bisyor, — deydi O'rta tashchirchiq tumanidagi 11-maktab targ'ibotchisi Fotima QURBONBOYEVA. — Direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, yoshlar yetakchilari va ayrim hollarda o'qituvchilar yugur-yugurlardan ortib, ularni yetarlicha parvarishlashga ulgurmayotgan edi. Maktablarda targ'ibotchilik joriy etilganidan so'ng bu navnihollar yetarli parvarishga muayassar bo'la boshladi, deyish mumkin. Bir donishmanddan haqiqiy vatanparvar kimligi haqida so'rashganida u: "Vatan qudrati, el-yurt ravnaqi, yosh avlod kamoloti yo'lida shaxsiy daxldorlikni his etgan va bu jarayonlarda faol bo'lgan inson vatanparvardir!", deya javob bergan ekan. Darhaqiqat, bugun jamiyatimizda tub burilishlar, yangilanishlar, o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shiddatli texnika davri bolalarining kitob mutolaasi zavqini his qilishi, adabiyot olamiga sayohat qilishi, she'r sehrini tuyishi oson kechmasligi mumkin. Lekin bu vazifa uddalanishi shart. O'sib kelayotgan yosh avlodning kitobsiz ulg'ayishi orzularni qanotsiz parvozga shaylash bilan barobar. Til mo'jizalar yaratishga qodir. U barcha bunyodkorliklar, ijod va iste'dodning kalitidir. Atrofimizda yosh iste'dod sohiblari bor ekan, demak, kelajakka umid bor. Ana shunday umid bilan nafas olayotgan yosh jilg'alar ulkan daryolarga aylanishi lozim va bunda targ'ibotchilar katta ahamiyat kasb etadi.

XX asr ikkinchi yarmida yoshlar ta'lim-tarbiyasini maqsadli isloh etib, taraqqiyotga erishgan mamlakatlar ro'yxatiga diqqat qiling: Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlandiya, Norvegiya...

Bu davlatlar islohotni bog'chadan boshlab, bir necha o'n yillikda o'ziga xos, samarali ta'lim-tarbiya tizimiga asos solish evaziga fuqarolari ijtimoiy himoyalangan, iqtisodiyoti barqaror yurtlarga aylana oldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday mas'uliyatli vazifani zimmasiga yuklar ekan, buni sidqidildan ado etish xalqimiz oldidagi farzandlik burchimiz ekanliging ta'kidladilar.

O'rta tashchirchiq tumanidagi 59-maktab targ'ibotchisi Sayyora NIZOMOVA ham ushbu qarordan mamnun:

— Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi ayni vaqtda ta'sis etildi, deya olaman. Chunki kelajak yoshlar qo'lida ekan, ertangi kunimiz haqida bugundan qayg'urishimiz kerak. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri va mazmunli tashkil etish, ularning kitobga bo'lgan mehrini uyg'otish va kuchay-

tirish katta mas'uliyat talab etadi. Kerak bo'lsa, bu javobgarlik hamdir. Vijdan oldidagi, xalq oldidagi, ertangi kun oldidagi javobgarlik. Bola qancha ko'p kitob o'qisa, nutqi ravon, dunyoqarashi teran, fikri to'liq bo'ladi, xotirasi mustahkam rivojlanadi. Bilasizmi, mana ikki oylik faoliyatim davrida shunga amin bo'ldimki, o'quvchilar orasida kitobga chanqoq, ijodkor yoshlar juda ko'p. Ayrimlari o'z fikrlarini bemaol yoritib bilsa, ayrimlari tortinchoq, indamas (ichimdagini top xilidan). Lekin barchasining ichki dunyosi boy. Ijodkor inson yosh bolaga o'xshaydi, o'ziga e'tibor uni ko'klarga ko'taradi, zavq ortib, yana va yana qo'lga qalam olish uchun turki bo'ladi. Faqat ularga to'g'ri yo'nalish berish, ijodiy ishlari kamchiliklarini tushuntirish va yuzaga chiqarish orqali biz o'ziga ishonadigan avlodni, ertamizning avliyolarini tarbiyalay olamiz.

Quyida esa o'quvchilarimga ham esh bo'layotgan ilhom parillariga bag'ishlangan she'rinni baham ko'rdim.

ILHOM PARILARI

*Ilhom parilari imlashar meni,
Qalbmning qatiga baytlar bitayin.
She'riyat chamani kutarkan endi,
Bu dardli olamga singib ketayin.
O, bu ko'ylaklari harir go'zallar,
Meni o'z bag'riga chorlar bir zumga.
Ular bilan birga kezay adirlar,
Bog'larni quchayin, kelmay o'zimga.
Sharqirayotgan bu jo'shqin soylar,
Yuvsin parilarim uzun sochini.
Mahliyo bo'lsin-u ko'kdagi oylar,
Bahor qizg'onmasin qaldirg'ochini.
Ilhom parilari imlashar meni...*

Otabek ISROILOV yozib oldi.

OGOH BO'LING!

QUTQARUV XIZMATI BOR JOYDA cho'milishga ruxsat etiladi

Cho'milish kishiga g'ayrat-shijoat baxsh etadi, kayfiyatingizni ko'taradi. Yoz mavsumi kelgach, kunning issiq harorati kishining cho'milishga ehtiyojini oshiradi. Shu sababli nafaqat kichik yoshdagilar, balki yoshi kattalarni ham suv havzalarida ko'p uchratamiz.

Cho'milish masalasida doimo hushyor bo'lish cho'kish bilan bog'liq mudhish hodisalarni kamaytiradi. Shu o'rinda cho'kish bilan bog'liq favqulodda holatlarning oldini olish borasidagi ayrim foydali maslahatlarga to'xtalsak.


Bolalar yoki ilk marotaba suvga tushayotgan katta yoshdagilarni suzishga o'rgatish joyi 60-90 santimetr-gacha chuqurlikda bo'lishi kerak. Bunday chuqurlikda odam suvdan cho'chimaydi, chunki oyog'i tayanch nuqtaga ega bo'ladi.

Ochiq suv havzalarida suzishni o'rganishda suvning chuqurligi bilan birga, oqim tezligini ham e'tiborga olish lozim. Oqim tezligi daqiqasiga 10 metrdan oshmasligi zarur.

Yoz oylarida farzandlarimizni suzishga o'rgatish vaqtini to'g'ri tanlash kerak. Ayrim ota-onalar kunning issiq paytidagina (soat 13:00-15:00)

suzishni o'rgatishga yoki cho'milishga ruxsat berishadi. Aslida ertalab soat (10:00 dan 12:00 gacha va kechki payt soat 17:00 dan 19:00 gacha quyoshning ultrabinafsha nurlari ko'p bo'ladi va shu soatlarda cho'milish juda foydali.

Cho'milish muddati 5 daqiqadan 25-30 daqiqagacha davom etishi mumkin. Bolaning yoshi, suzishga tayyorligi, suvning haroratiga e'tibor berib, suzish muddati asta-sekin oshirib boriladi. Yoz payti katta yoshdagi bolalar suv harorati +18°C bo'lganda, kichik yoshdagilar +20°C va +28°C dan kam bo'lmaganda ochiq suv havzalarida cho'milishi mumkin. Agar suv harorati +16°C dan past bo'lsa, cho'milmaslik kerak. Suvga tushishdan oldin bosh, ko'krakni ho'llab, so'ng sho'ng'ib olish dardkor.



Ta'kidlash joizki, yoz mavsumida cho'kish bilan bog'liq mudhish hodisalar tez-tez uchraturadi. Bunday fojiga asosan ota-onalar, kattalarning bolalar ustidan nazoratni susaytirishi, mahalla, maktab, kollej, akademiya litsey o'qituvchi-pedagoglari va boshqa xizmat xodimlarining yoshlar orasida tushuntirish ishlarini qoniqarsiz olib borishi, shuningdek, bolalarning suzish-

ni bilmasligi kabi holatlar sabab bo'ladi.

Eslatib o'tish zarurki, faqat qutqaruv xizmati bo'lgan joylardagina cho'milishga ruxsat etiladi.

Sanjar QIDIROV,
Toshkent viloyati FVB
Qibray tumani FVB
OYXTEB Profilaktika
va nazorat bo'linmasi
inspektori



DINIY BAG'RIKENGLIK

TINCHLIK VA TARAQQIYOT ASOSI

O'zbekiston qadim-qadimdan diniy bag'rikenlik o'lkasi sifatida e'tirof etilgan. Bu diyorda yashab kelayotgan turli millat va konfessiya vakillari azaldan bag'rikeng o'zbek xalqi bilan hamjihatlikda shu yurt taraqqiyoti, tinchligi uchun bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilib kelmoqda.

"Bag'rikenlik" so'zi deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma'nolarni ifodalaydi deyish mumkin.

Diniy bag'rikenlik – biror kishiga nisbatan uning dini va e'tiqodiga qarab emas, balki uning, avvalo, inson ekanligini e'tiborga olgan holda muomala qilishni anglatadi. Bu har bir inson o'z diniga e'tiqod qilishga haqqi borligini tan olish va o'zga din va e'tiqod vakillariga nisbatan hurmatda bo'lishdir.

Diniy bag'rikenlik – o'zi uchun begona bo'lgan dunyoqarash vakillariga nisbatan xavotir va nafrat bilan emas, balki xotirjamlik va samimiyat bilan munosabat ko'rsatishdir.

Xalqimiz boshidan ne-ne sinovlarni o'tkazmasin, og'ir damlarni sabr bilan yengib o'tib, kishilar o'rtasida diniy va milliy ixtiloflarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymagan. Aksincha, qiyinchilik davrida boshqa millat va e'tiqod vakillariga qo'zal insonparvarlik namunasini ko'rsatgan.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Rossiya Federatsiyasi xalq artisti, mashhur aktyor Yuriy Nikolayevich Stoyanovning "Моя семья во время войны спасли узбеки" nomli videosi keng tarqaldi. Mashhur aktyor o'z xotiralarida Ikkinchi Jahon urushi davrida onasi Yevgeniya Leonidovna Stoyanova yosh qizchaligida O'zbekistonga ko'chirilganlardan biri bo'lganini, o'zbek oilasida tarbiya topganini qayd etdi. Yuriy Stoyanov hozirgacha o'zbek palovi va nonini sevib iste'mol qilishini ta'kidlarkan insonlar bilan muomalada hurmat yuzasidan qo'lini ko'ksiga qo'yib turishni o'ziga odat qilgan bu xalq – bag'rikenligi, mehmondo'stligi, fidoyiligi va kamtarligi bilan hamisha hurmat va ehtiromga sazovor ekanini o'ziga his-hayajon bilan qayd etdi.

Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonda bugun ham mamlakatda millatlara-ru va konfessiyalararo birlik va birlamlikni ta'minlash, yoshlar ongiga bag'rikenlik g'oyalarini singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu o'tkir haqiqatni anglash bugun har qachongidan ham dolzarbdir. Zero, dunyoda hukmronlik qilishga intilayotgan ayrim kuchlar o'zlarining g'arazli maqsadlariga insonlar o'rtasida ixtilof va ziddiyatlar chiqarish, kishilarni bir-biriga qarshi qo'yish, "Bo'lib tashla, hukmronlik qill" qoidasini amalga oshirish yo'lidan bormoqdalar. Tinchlik va osoyishtalik dushmanlarining makr-aldovlariga uchmaslikning muhim tamoyili yurakni keng qilish, har qanday muammoni aql va sabr bilan hal qilishdir.

Oila muhitida tinch va xotirjam hayot kechirish uchun keng fikrli, chuqur andishali va tolmas toqatli bo'lish muhimdir. Bugungi kunda er-xotin, ota-bola, qaynona-kelin, aka-uka, opa-singil o'rtasida yuzaga kelayotgan ayrim ziddiyatlarning asosiy omili –



bag'ritorlik, egoistlik ekani statistik ma'lumotlardan ma'lum.

Mahallalar, ovul va qishloqlarda tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lmog'i uchun qo'ni-qo'shnlari o'rtasida o'zaro mehr-oqibat, hurmat-izzat munosabatlari mustahkamlanib bormog'i zarurdir. Qo'shniga yaxshilik qilish, bemor bo'lsa, holidan xabar olish, biror narsaga muhtoj bo'lsa, yordam qo'lini cho'zish, hamsoyaga tansiq taom ulashish milliy va diniy qadriyatlarimizdan, tinchlik poydevori bo'lgan bag'rikenlikni quvvatlantiruvchi omillardandir.

Turli millat va e'tiqod vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch barqarorligini ta'minlash muhimdir. Bu borada virtual bag'rikenlikning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Bugun ijtimoiy ziddiyatlar virtual olamda ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, platformalar orqali yuzaga kelayotgani sir emas.

Bugungi kunda virtual bag'rikenlik atamasini ilm-fanga joriy qilish va uni yoshlar orasida keng targ'ib qilish dolzarb ahamiyatga ega. Virtual bag'rikenlik – internet olamida muloqot chog'ida turli profil va akkaunt egalari o'rtasida o'zaro hurmatni unutmaslikdir. Shaxsi, millati, e'tiqodi, dunyoqarashidan qat'i nazar biror kimsani haqorat qilishdan, obro'sini to'kishdan, kamsitish va tahqirlashdan saqlanish, kishilarni parokanda qiladigan, odamlar orasida adovat va buzg'unchilikka sabab bo'ladigan ma'lumotlarni tarqatmaslikdir. Virtual bag'rikenlik – diniy bag'rikenlikning, diniy bag'rikenlik - tinchlikning, tinchlik esa taraqqiyot va farovonlikning muhim asoslaridandir.

Xulosa qilib aytganda, bag'rikenlik saodatdir. Uni oilada, mahallada, ta'lim muassasalari, korxonada va tashkilotlarda targ'ib va tashviq etish yurtini sevgan, uning munavvar istiqboli uchun qayg'urgan har bir fuqaroning dolzarb vazifasidir.

Saidafzal SAIDJALOLOV,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi

Hozirgi globallashtirish sharoitida moddiy chegaralar tobora nisbiylashtirilib, milliy-ma'naviy qadriyatlar asta-sekin umumiy lashtirilib borishi kuzatilmoqda. Bunday davrda milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish, milliy o'zlikni anglash va qadriga yetish tushunchalari pirovard maqsadga aylanadi. Milliy o'zlikni anglash va qadrlash jarayoni milliy qadriyatlarimizning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Sababi, umuminsoniy – barcha uchun umumiy qadriyatlar xususiylikning yemirilib ketishi uchun xizmat qilmasligi kerak. Boshqa tarafdin – milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishga intilishimiz dunyodan uzilib qolishimizga ham olib bormasligi lozim. Aynan, "Oltin muvozanat"ni topish masalasi bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

izning aksariyati mana shu mazhab vakillari bo'lgan. Demak, ayta olamizki, milliy va diniy qadriyatlarimiz asosida hanafiylik mazhabi an'analari ham bor. Hozirda, yurtimizga chetdan kirib kelayotgan turli begona oqim va firqalar nafaqat muqaddas dinimizga, balki bevosita milliy qadriyatlarimizga ham tajovuz ekanini anglab yetishimiz kerak. Milliy o'ziga xosligimizni saqlab qolishning talabi shu.

O'rni kelganda aytib o'tish kerakki, ibo-hayo, mehmondo'stlik, o'zaro hurmat-ehtirom, ota-onaning haqlarini ado etish, ijtimoiy hamkorlik, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnlilar, boringki, barcha ehtiyojmand qatlamlarga ko'maklashish xalqimizning tom ma'nodagi fazilatiga aylangan. Jahonda kechayotgan

JAMIYATNING "OLTIN MUVOZANATI" NIMADA?

Tarixiy jarayonlar va bugungi voqelik ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali davlatlarda dunyoviy jamiyat qaror topishi eng maqbul yo'l ekanini ko'rsatadi. Dunyoviylik barcha uchun bir xil imkoniyat yaratilishini ta'minlovchi, turli milliy-etnik va diniy asosdagi nizolar kelib chiqishining oldini oluvchi samarali vosita ekanini jahonning ilg'or davlatlari tajribasida o'z isbotini topgan. Shunday ekan, ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali O'zbekiston sharoitida dunyoviylik bu – hayotiy zarurat. Bu biz intilayotgan "Oltin muvozanat"ni tutib turuvchi dastak bo'lishi mumkin.

Endi milliy qadriyatlar masalasi kelsak, yurtimizda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi, 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritadi. O'z-o'zidan savol tug'iladi: milliy qadriyat deganda nimani tushunishimiz kerak? Bunday holatda muayyan millatning urf-odatlarini va an'analari boshqa millatlarnikidan ustun ko'rilishi noo'r, albatta. Har bir millat va elat o'z qadriyatlarini saqlab qolishga haqli. Shu sababli, mustaqillikning ilk yillaridanoq yurtimizda milliy-madaniy markazlar faoliyati keng yo'lga qo'yilgan. Davlatimizda yashayotgan barcha millatlar "O'zbekiston – umumiy uyimiz!" ekanini anglashi, his qilishiga muhim e'tibor qaratilgan. Bu umumijahon miqyosida ham yaxshi natija bera oladigan tajriba.

Shu o'rinda bitta nozik nuqtaga e'tibor qaratish lozim. Nafaqat yurtimizda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ming yildan beri islom dini bilan bog'liq qadriyatlarimiz hanafiy mazhabida asosida shakllanib kelgan. Hanafiy mazhabining bag'rikenlik tamoyillari shariatga zid bo'lmagan milliy urf-odat va an'analarni saqlab qolishdagi o'rni beqiyos. Biz hozirda faxrlanib yodga oladigan ajdodlarimiz

koronavirus pandemiyasining eng og'ir pallasida xalqimizning jipsligi va ahilligi, o'zaro yordamlashishga doimo tayyorligini jonli guvohi bo'ldik. Agar biz G'arbdan kirib kelayotgan individualizmga yon berib, millatimizga xos bo'lgan jamoaviylik tamoyillarini yo'qotib qo'yganimizda natija qanday bo'lar edi?

Demak, dunyoviy jamiyatda milliy qadriyatlar o'rni beqiyos. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, targ'ib qilish davlat siyosati darajasiga chiqqani bejiz emas. Ammo, xalqimiz orasida tarqab borayotgan ayrim ijtimoiy-ma'naviy illatlar ham milliylik yoki "o'zbekchilik" deb xaspo'shlanishi mutlaqo o'rinsiz holatdir. Dabdababozlik, molparastlik, har qanday ishda kimo'zarga berilib ketish, o'zga madaniyatlarga ko'r-ko'rona taqlid, riyokorlik, xo'jako'rsinchilik, jinoyat botqog'iga botirib yuboruvchi tanish-bilishchilik va korruptsiya kabi illatlar millatni va xalqni tanazzulga yetaklaydi. Dunyoviy jihatdan ham fuqarolik jamiyatining asoslaridan biri – jamoat nazoratining bo'lishidir. Odamlar bunday holatlarga befarq va loqayd bo'lmasliklari, eng asosiy, xayrixoh bo'lib qolmasliklari shart.

Ko'rinib turibdiki, dunyoviy va milliy qadriyatlar bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, bir-birini to'ldiradi. Dunyoviy jamiyat milliy qadriyatlarisiz ruhan kemtik, quruq qonun-qoidalariga asoslangan intizomiy shaklga tushib qoladi. Zero, qonun ustuvorligi naqadar muhim bo'lsa, odamlar o'rtasidagi muomala munosabatlari, izzat-ehtirom, axloqiy me'yorlarning ahamiyati ham undan kam emas.

Zafar FAXRIDDINOV,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti



SALOMATLIK SABOQLARI

Sog'lom turmush tarzi deganda, insonning har kungi tipik hayot shakli tushuniladi. Uning amal qilish organizmni mustahkamlaydi, takomillashtiradi, tana ijtimoiy va kasbiy funksiyalarini yaxshilaydi. Sog'lom turmush tarzining mazmuni mehnat qilish va dam olish, uyqu gigiyenasi, ovqatlanish gigiyenasi, jismoniy mashqlar, o'zini hurmat qilish, odamlar bilan munosabatda o'zini tuta bilish va boshqalardan iborat.

Talabalarga

Talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda, birinchi navbatda, sog'lig'ini mustahkamlash, hayot shaklini o'zgartirish, gigiyenik bilimlarini oshirish, zararli odatlar bilan kurashish, sog'lom ovqatlanishni shakllantirish, gipodinamiya va hayot situatsiyalarining noqulay jihatlari bilan kurashishni o'rgatishdan iborat.

Qat'iy tartib asosida mehnat qilish va dam olish ishchanlik qobiliyatining yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Inson organizmida aniq tartib saqlanganda ma'lum biologik ritm ishlaydi, shuningdek, shartli reflekslar tartib bilan ketma-ket kelib-qaytarilib dinamik stereotip hosil bo'ladi. Masalan, agarda talabalar har kuni belgilangan vaqtda aqliy, jismoniy ish bilan shug'ullansa, ishchanlik qobiliyati yuqori bo'ladi hamda darslarni o'zlashtirishi yaxshilanadi. Organizmning ritmlari mustaqil bo'lmaydi, balki u tashqi muhitning o'zgarishi, kecha-kunduzning almashishi, oy va fasllarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi.

Mashhur olimlar Klod Bernar, Uolter, Kennon ichki muhitning birday saqlanishi nazariyasini ishlab chiqqan. I.Sechenov, I.Pavlov va boshqalar esa organizm holati o'zgarishining tashqi muhit hodisalarini ritmik o'zgarishiga bog'liqligini bir necha marta ta'kidlagan. Mashhur olimlarning nazariyalari va hozirgi tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, tunda almashinuv jarayonlari, yurak-tomir ishi, nafas tizimi ishdan chiqadi, tana harorati kamayadi hamda bosh miyaga informatsiya kam qabul qilinib, kunduzgi harakat faolligi hamda nerv tizimining funksiyalari ortib boradi. Talabalarning ishchanlik va aqliy qobiliyati soat 09:00

dan 11:00 ga qadar ortib boradi. Soat 13:00 dan keyin ishchanlik qobiliyati kamayib, soat 16:00-17:00 da juda pasayadi. Funktsional imkoniyatlar talabalarda soat 21:30 dan keyin kamayadi.

O'qishda va shaxsiy hayotida talabalarning kunlik yuklamasi ortib ketishi surunkali stress holatiga olib keladi va tananing himoya funksiyalarini susaytiradi, turli kasalliklarni chaqiradi. O'qish va shaxsiy hayotdagi ishlar me'yorida bajarilishi uchun ma'lum qolipga tushib olish, qat'iy ishlaganda ora-orada dam olib turish zarur.

Mehnat, dam olish va ovqatlanish ratsioni buzilsa, pankreatit, surunkali xoletsistit, semizlik, vaznsizlik, revmatizm, ichterlama, oshqozon yarasi, o't-tosh kasalliklari, meteorizm, gepatit kasalliklari va boshqa kasalliklar kelib chiqadi.

Ishchanlik qobiliyatini saqlash va sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil etish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- har xil faoliyat turlarini belgilangan vaqtda bajarish;
- mehnat va dam olishni samarali almashtirish;
- tizimli ravishda ratsional ovqatlanish;
- zararli odatlardan voz kechish;
- shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish;

- har kuni 1-1,5 soat sport bilan shug'ullanish;

- har kuni 2-3 soat toza havoda sayr qilish;

- axborot texnologiya vositalaridan foydalanganda gigiyenik qoidalarga rioya qilish;

- uyqu gigiyenasiga qat'iy amal qilish.

Bu qoidalar talabalarning sog'lom bo'lishi, hayotga qiziqishini oshiradi va mehnat qobiliyatini uzoq yillar saqlashga yordam beradi.

Sport — umrimiz oxiriga qadar sog'lom hayot kechirishning asosiy shartidir. U yosh ham, joy ham, hattoki shart-sharoit ham tanlamaydi. Uning ko'rinishlari, shakllari, usullari ko'p. Yoga, pilates, piyoda yurish, yugurish, tumikka tortilish, raqs, rafting, bodibulding, gimnastika, futbol va hokazo... Istaganingizni tanlang, jismonan faol bo'lsangiz kifoya.

Ovqat ratsioniga tabiiy mahsulotlar, vitamin va sabzavotlar, vitamin va minerallarga boy oziq-ovqatlarini ko'proq kiriting. Ovqatlanish ratsionining 65 foizini meva va sabzavotlar, non va turli bo'qalar tashkil etishi, 30 foizi go'sht va sut mahsulotlari, 5 foizi shirinlik va yog'larga ajratilishi, ozuqalar yangi, mavsumga mos bo'lishi lozim. Bahor va yozda o'simliklar, qishda oqsil va yog'ga boy mahsulotlarga ko'proq o'rin ajratiladi. Fastfud, gazli ichimliklar, yarim tayyor mahsulotlar, chips va kiriyeshkilar, boshqa ko'plab sun'iy ta'm, rang va shakl berilgan ozuqalardan voz keching.

Xilma-xil taomlarni aralashtirib yubormaslik lozim. Mevalar ovqatdan yarim soat avval, choy va ichimliklar 1-2 soat keyin qabul qilinadi. Keçki 19:00 dan keyin faqatgina olma yeyishga ijazat beriladi.

Ovqatlanishdan avval va keyin, albatta, qo'llarni yuvish, uyqudan oldin va ovqatlangandan so'ng tishlarni tozalash, toza kiyim, umuman, tozalikka qat'iy rioya etish sog'lom turmush tarzining asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Unutmang! Sog'lom turmush tarzi, bu — har qanday kasallikning profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishishni qoidalarga rioya etgan odam oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib o'tish, hayot qiyinchiliklari oldida o'zini yo'qotmaslikni o'rganadi.

Shu bois, talabalarga 1-kursda "Valeologiya asoslari" fani negizida quyidagi mavzular bo'yicha tushunchalar beriladi:

— salomatlik haqida tushuncha;

— inson salomatligi va zararli odatlar. Giyohvandlik va toksikomaniya. Organizmning biologik va irsiy imkoniyatlari;

— reproduktiv salomatlik va yuqumli kasalliklar. "Ona va bola" sog'lig'ini muhofaza qilish;

— OIV va OITS haqida tushuncha. OITS kasalligi belgilari va oqibatlari;

— ovqatlanish gigiyenasi. O'sish va rivojlanish haqida tushuncha.

2020-2021-o'quv yilida ayrim universitetlarda bakalavr ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasidan "Valeologiya asoslari" fani olib tashlangan. Vaholanki, davlatimiz rahbarining "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori (2020-yil 10-noyabr)ga muvofiq aholini sog'lom turmushga tarbiyalash, to'g'ri ovqatlanish, tibbiy bilimlarini oshirish, turli infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklarning oldini olish maqsadida "Valeologiya asoslari" fanini oliy ta'limga va texnikumlarida o'qitish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining "Sog'lom turmush tarzi" platformasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham "Valeologiya asoslari" faniga alohida urg'u berilgan.

Shu bois, biz sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish maqsadida universitetimiz talabalari o'rtasida turli tadbirlarni muntazam o'tkazaymiz.

Unutmang! lozimki, sog'lom turmush tarzi qoidalarini o'zaro uyg'un holda samara beradi, bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisiz sodir bo'lishi amrimahol. Unga rioya etishni ertaga qoldirmasdan, hoziroq boshlasak, sog'lom va baxtli hayot sari ilk qadamlarimizni tashlagan bo'lamiz.

Jamshid JALILOV,
Termiz davlat universiteti
o'qituvchisi



ELON

Kurbanbayev Giyos Abdulolobovichga Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan berilgan 1206 raqamli reyting daftarchasi yo'qolgani sababli BEKOR QILINADI.

Suvanov Naim Yashinovichga Toshkent moliya instituti qoshidagi Moliya akademik litseyi tomonidan 2008-yilda berilgan K №051601 raqamli diplom va uning ilovasi yo'qolgani sababli BEKOR QILINADI.

